

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2013-yil
22-aprel
N:16
(66921)



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

AN'ANALAR ETADI DAVOM



Yaqinda Navoiy shahridagi «Amfiteatr»da viloyatning iste'dodli va iqtidorli o'quvchilari ishtirokida «Istiqlol g'unchalari» bolalar ijodiyoti festivali bo'lib o'tdi. Navoiy viloyati hokimligi, Xalq ta'limi boshqarmasi tashabbusi bilan o'tkazilgan ushbu tadbirda viloyatning tuman va shaharlaridagi maktabgacha, umumta'lim hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining ijodkor o'quvchi-yoshlari ishtirok etishdi. Ko'tarinki ruhda o'tgan ushbu festival doirasida viloyatdagi o'ndan ziyod «Barkamol avlod» bolalar markazlari qoshida faoliyat yuritayotgan texnik, badiiy ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya yo'nalishlaridagi tasviriy san'at, zardo'zlik, popopchilik, kulolchilik, naqqoshlik, to'quvchilik, do'ppido'zlik, qandolatchilik, sangtaroshlik kabi to'garak a'zolarining 30 000 dan ortiq ijodiy ishlari namoyish etildi.

Davomi 2-betda

Sh.ASLONOV olgan suratlar.
O.ORIPOV kollaji

(Boshi 1-betida)

AN'ANALAR ETADI DAVOM

– Kichikligimda buvim bilan onam turli xildagi gilamlar to'qishar, men esa ularga juda havas qilardim. Bu qiziqishimni sezgan onam tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar markazining «Gilamchilik» to'gariga olib bordi. To'garak rahbarimiz Gulzira Tangatarovadan «Oq en», «Gajari» kabi gilam turlarining to'qilish usullarini qunt bilan o'rganayapman. Men ushbu festivalga o'zim to'qigan gilamlarim bilan ishtirok etayapman, – deydi ushbu ko'rgazmadan bir olam taassurot olgan Konimex tumanidagi 22-maktabning 4-sinf o'quvchisi Elmira Turg'anbayeva.

Izlanuvchan, tirishqoq o'quvchi-yoshlarning iste'dodini qo'llab-quvvatlash va ularni rag'batlantirish maqsadida o'tkazilgan ushbu ko'rgazma chin ma'noda xalqimizning milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini qadrlangan tantanaga aylandi.

– Tosh o'ymakorligi san'ati kishidan mashaqqatli mehnat va kuchli sabr talab etsa-da, bu san'at hamisha insonlarni o'ziga rom qilib kelgan. Shu bois, men ustozim Erkin Abdullayevdan bu noyob, nafis milliy san'atimiz durdonasining sir-asrorlarini qunt bilan o'rganib bormoqdaman. Ushbu ko'rgazmada o'zimning bir qator ijodiy ishlarim bilan qatnashyapman. Kelajakdagi eng katta orzum dunyo miqyosidagi ko'rgazmalarda o'z ijodiy ishlarim bilan qatnashish, – deydi Nurota tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazi «Tosh o'ymakorligi» to'garigining a'zosi Qurbonali Mardonov.

Qizg'in tarzda o'tkazilgan ushbu ko'rgazma yangidan yangi qobiliyatli o'quvchi-yoshlarni kashf etish, ularga o'z kasb salohiyatini namoyish etish uchun keng yo'l ochib berishi bilan e'tiborlidir. Ana shunday iste'dodli yoshlarimizdan yana biri zarafonlik tengdoshingiz Gulrux Jabborovadir.

Gulrux Zarafshon shahridagi «Barkamol avlod» bolalar markazidagi «Munchoqli bezak» to'garigining faol a'zosi. Biz uning ijodiy ishlarini kuzatar ekanmiz, bu iste'dodli qizchaning ko'rgazma davomida ham rang-barang munchoqlardan turli xildagi gullarni yasayotganligiga guvoh bo'ldik.

Ushbu festivalning mantiqiy yakuni sifatida bo'lib o'tgan yosh san'at g'unchalari ishtirokidagi katta konsert dasturi «Istiqlol g'unchalari» festivalining madhiyasi bilan boshlandi:

Buxoro viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida o'tkazilgan «Aviamodel» yo'nalishidagi sport-texnika musobaqasi ishtirokchilarini kuzatar ekanmiz, ularning o'zlarini xuddi uchuvchilardir tutishlarini ko'rib, qabllarda g'urur, iftixor tuyg'ulari bo'y cho'zdi. Ajab emas, oralaridan davlatimiz bayrog'ini kosmosga olib chiqqan birinchi o'zbek kosmonavt-uchuvchisi Solijon Sharipovdek mard fazogirlar yetishib chiqsa.

NIGOHLARI O'KTAM BOLALAR

Tuman, shahar, viloyat miqyosida «Aviamodel» yo'nalishidagi sport-texnika musobaqalarni o'tkazishdan ko'zlagan maqsad o'quvchilarni samolyotlar texnikasi, aviamodel sporti va kosmonavtika sohasi bilan yaqindan tanishtirish, ularni kosmonavtika texnikasi sohasi mutaxassisligiga yo'naltirishdan iborat. Shuningdek, bunday musobaqalar bolalar va o'smirlarning texnikaga bo'lgan qiziqishini orttiradi, to'garak mashg'ulotlari davomida tayyorlagan maket va modellarini himoya qilishlariga imkon yaratadi. Musobaqada viloyatimizdagi barcha shahar va tumanlardan jami 45 nafar ishtirokchilar bir necha model turlari bo'yicha bellashdilar.

«Uchar qanot» rususidagi Katapulta yordamida uchuvchi modeli uchun G'ijduvon tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi «Aviamodel» to'garigi a'zosi Shahboz Bafoyev, qog'ozdan yasalgan «Hajmli» samolyot va modellar uchun Shofirkon tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi «Aviamodel» to'garigi a'zosi Jasur Jamolov, qog'ozdan yasalgan turli xil samolyot modellarining ko'rgazmali nusxasi uchun Olot tuman

«Barkamol avlod» bolalar markazi «Aviamodel» to'garigi a'zosi Ulug'bek Ergashev 1-o'ringa loyiq deb topildilar.

Umumjamoa hisobida I o'rinni G'ijduvon tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi jamoasi, II o'rinni Shofirkon tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi jamoasi, III o'rinni Olot tumani «Barkamol avlod» bolalar markazi jamoasi egallashdi.

Sport-texnika musobaqasi g'oliblari viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazining «Faxriy yorliq»lari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. «Barkamol avlod» bolalar markazlarida yoshlarga kosmonavtika sirlarini o'rgatayotgan ustozlar g'ijduvonlik Shamsiddin Bafoyev, oltlik Elmurod To'rayev, shofirkonlik Muhammad Temirov maktabdan tashqari ta'limning fidoyilari, deya e'tirof etildilar.

Bir so'z bilan aytganda, samolarni zabt etishni orzulangayotgan bu yoshlarning shijoatini ko'rib, ularni qo'llashimiz, imkon eshklarini yanada kengroq ochishimiz lozimligini dildan his etdim.

Feruza RAJABOVA,
Buxoro viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi «Texnik ijodkorlik» yo'nalishi uslubshunosi

*Mahoratli, toleyi porloq,
Istiqlolning g'unchalarimiz.
Har kun bizga ulug' bir saboq,
Istiqlolning g'unchalarimiz.*

Ushbu qo'shiq jilvakor raqsilar bilan sahnaga chiqqan bir guruh jamalakochoq qizaloqlar-u boshlarida o'zbek do'ppisi yarashib turgan kichkintoy bolajonlar tilidan tantanavor yangradi.

Viloyat hokimi, senator E.Turdimov festival ishtirokchilarini qizg'in muborakbod etdi.

O'zbek, rus, qozoq, qoraqalpoq tillaridagi kuy-qo'shiqlar katta-yu kichikni bolalikning sehri dunyosiga chorladi, go'yo. Ayniqsa, Navoiy shahridagi 26-MTM jajji tarbiyalanuvchilari ijrosidagi «To'maris» raqsi barchaga xushkayfiyat ulashdi.

Dillarga ajib bir xushnudlik olib kirgan tadbir so'ngida g'oliblikni qo'lga kiritgan zukko o'quvchi-yoshlarimizga viloyat hokimligining Diplomlari va esdalik sovg'alari topshirildi.

Asosan, maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ushbu bolalar ijodiyoti festivali respublika miqyosida ilk bora Navoiy viloyatida o'tkazilayotgani alohida e'tiborga molik.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, ijodkor va qobiliyatli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, iste'dodlarni kashf etish, ular o'rtasida o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yishga xizmat qiluvchi bunday tadbirlar yoshlar qalbiga mehnatsevarlik, mehr-muhabbat urug'ini qadab, ularni hunar o'rganishga chorlaydi.

«Obod turmush yili» Davlat dasturi asosida o'tkazilgan mazkur festival may oyida viloyatda o'tkaziladigan «Asrlar sadosi» festivalining debochasi bo'ldi, desak adashmaymiz.

Abdixoliq JO'RAYEV,
Muslimbek YUSUPOV,
Navoiy shahri

Taqdimot



LAMNI ASRASH – DAMNI ASRASH

Bugungi kunda ona tabiatni asrash, ekologik muvozanatni saqlash insoniyat oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylandi. Chunki tabiatga befarqlarcha munosabatda bo'lish, vaqti kelib, o'nlab bo'lmas tashvishlar keltirishini bugun ham-mamiz anglab yetyapmiz.

Kuni kecha poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida «EKO OLAM» jurnali hamda yaqindan boshlab chop etila boshlagan «EKO OLAM PRESS» gazetasi-ning taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. Keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan har ikki nashrda ham ekologik tarbiyani yoshlikdanoq shakllantirib borishga alohida e'tibor qaratilgani diqqatga molikdir.

Mazkur nashrlar orqali o'quvchilar hayvonot va nabotot olamiga doir ma'lumotlarga ega bo'ladilar.



«Dunyo bo'ylab sayohat» rukni ostida berib borilayotgan rang-barang maqolalar yer kurrasining turli burchaklarida joylashgan mamlakatlar, ularning tabiati, insonlarning turmush tarzidan xabardor qiladi.

Eng muhimi, bu nashrlar o'quvchilarning ekologik bilimlari oshishiga xizmat qiladi. Bu esa juda muhim.

O'z muxbirimiz



EKO OLAM

IJOBIS USI

MAROQLI UCHRASHUV

Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi 57-umumta'lim maktabida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib turiladi. Mazkur maktabning sobiq o'quvchisi, taniqli aktyor Alisher aka Ataboyev ishtirokidagi ijodiy uchrashuv ham juda maroqli o'tdi. Uchrashuvga uzoq yillar davomida maktabda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari bo'lib ishlagan nafaqadagi ustoz Halima opa Toshmuhammedova hamda ona tili va adabiyot fanidan saboq bergan Muqaddam opa Ubayeva ham taklif etildi.

Uchrashuv mehmonlarini maktab qoshidagi doirachilar guruhi a'zolari sho'xchan doira sadolari ostida qarshi oldilar. Maktab rahbari Shohida Kamoliddinova ochib bergan tadbir qiziqarli savol-javoblarga ulanib ketdi. Alisher aka o'quvchilarga «Jasur», «Tubanlik», «Aldangan



ayol» kabi filmlari haqida, ularni suratga olinish jarayonidagi esda qolarli voqealar haqida so'zlab berdi. Bunday yutuqlarga o'z-o'zidan erishilmasligi, ularning zamirida, albatta, ustozlar zahmati va aktyorning tinimsiz mehnatlari yotishini ta'kidladi.

Uchrashuv so'ngida bunday qiziqarli tadbirni uyushtirgan o'qituvchilar – Shoirra Ergasheva va Munira Muhitovaga alohida tashakkur izhor etildi.

Direktor o'rinbosari Mav-luda opa Bebetova so'zga chiqib, qimmatli vaqtlarini ayamay kelgan ustozlarga minnatdorchilik bildirdi.

Muzaffar AHMEDOV,
Bobur XONBOBOYEV



BOG'IMIZ GULLAB, YASHNASIN

Shu kunlarda mahallamizda obodonlashtirish ishlari avjida. Hovlilarimizga yangi nihollarning urug'i qadaldi, ko'chalardagi katta daraxtlarning shoxlari tartibga keltirildi. «Obod turmush yili»da har bir oilaning obod va farovon bo'lishi barchaning shioriga aylangan. Ammo «Guruch kurmaksiz bo'lmaydi» deganlaridek, mahallamiz ahli ne mashaqqatlar bilan tozalagan ariq va zovurlarga ayrim kimsalarning kechasi chelaklab chiqindi, mag'zava, kul to'kib ketishlari ta'bimizni xira qiladi.

O'ramizda bunday odamlar bor ekan, tabiatga, uning ne'matlariga putur yetaveradi. Ularga qarata: «Ey odamlar, tabiatga ozor

yetkazmang, bu to'g'rilab bo'lmaydigan xatolarimiz ertaga ko'plab tashvishlar keltirishi mumkin», degim keladi.

Men tahsil olayotgan 34-maktabda «Yoshlar bog'i» barpo qilingan bo'lib, har yili erta bahorda bu boqqa yuzlab mevali va manzarali ko'chatlar o'tqazamiz. Shu yo'l bilan ona tabiatni asrab-avaylashga, bioxilma-xillikni asrab qolishga harakat qilamiz. Bog'imizning gullab-yashnashiga o'z hissamizni qo'shayotganimizdan juda mamnunmiz.

To'liqjon HAFIZOV,
Qashqadaryo viloyati, Kitob shahridagi
34-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi

BILIM DARGOHIM

Yurtimizda biz yoshlarning mukammal bilim olishimiz, bor iqtidorimizni namoyish etishimiz uchun imkonlar bisyor.

Men tahsil olayotgan O'zMU qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomli akademik litseyda ham biz o'quvchilarning tahsil olishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'qituvchilarimiz har kuni maxsus o'quv formasida kelishimizni nazorat qilishadi. Darsga kirishdan avval sinf sardorimiz maxsus qopchaga sinfdoshlarimizning qo'l telefonlarini yig'ib oladi. Bilim maskanimizda tez-tez tadbirlar o'tkazib turamiz. Yaqinda direktorimiz Qahramon aka Ibodullayev boshchiligida kattakon doshgozonda sumalak pishirdik. Tadbir chinakamiga bayramga aylanib ketdi. Xullas, bilim dargohidagi har bir kunimiz maroqli, mazmunli o'tmoqda.

Zulayho ZARFULLAYEVA

dorixonadan dori sotib olib ichirdim. Yuzlariga muzdek suv sepib, ahvolini biroz bo'lsa-da, yaxshilashga urindim. U kishi ancha o'ziga kelib, meni duo qildi, ota-onamga rahmat aytdi. Shunda egallayotgan hamshiralik kas-



MAKTABDA HASHAR BO'LDI

Bahor ko'nglimizni xushnud etdi. Yam-yashil maysalarning qir-adirlarga gilam yozgani zavqimizni yanada oshirdi. Maktabimizni gul-u gulzorga aylantirish maqsadida o'tkazilgan hasharda barcha tengdoshlarim qatori men ham faol qatnashdim.

Bilim maskanim bog'iga uch tup mevali daraxt va besh dona atirgul ko'chatlarini o'tqazdim. Bundan o'zim ham faxrlanib, zavqim oshib ketdi. Maktabimiz direktori Dilbar opa Suvonova, o'qituvchilardan Gulchehra opa Ashurova, Mastura opa Ismoilova, Hafiza opa Rashidova bizga boshqosh bo'lishdi. Har bir o'quvchi jonajon ilm dargohini obodonlashtirishga o'z hissasini qo'shdi. Obod turmush tarzini har kim o'z dargohidan boshlasa, nur ustiga a'lo nur bo'larkan.

Gulmira ISMOILOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
13-umumta'lim maktabining
7-sinf o'quvchisi

KASBIMDAN FAXRLANDIM

Hunar – insonning ziynati. Kishi hunari bilan go'zal. Qachonki hunarni o'z joyida qo'llay olsa, hunarmand insonga bundan ortiq baxt yo'qdir. Tunov kuni yo'lda ketayotib, bir kishining tobi qochib qolganini ko'rib qoldim. Uning oldidan befarq o'tib ketishga vijdonim yo'l qo'ymadi. Axir tibbiyot kollejiga o'qishga qabul qilinganida «Gipokrat qasamyodi»ni qabul qilganman. Shunday ekan, salomatligini yo'qotgan har bir insonni, u kim bo'lishidan qat'iy nazar, chin dildan davolashni burchim deb hisoblayman. O'sha ondayoq u kishining ahvolidan xavotirlanib, tez yordamga qo'ng'iroq qildim. Shifokorlar yetib kelgunga qadar birinchi yordam ko'rsatib,



bimdan faxrlanib ketdim. Bu ajoyib kasbning egasi bo'lishimga o'z hissasini qo'shayotgan o'qituvchilarim, ota-onamga cheksiz minnatdorchilik bildiram.

Nodira ARSLONOVA,
P.F. Borovskiy nomli Toshkent
tibbiyot kolleji 2-bosqich
o'quvchisi



«ONAJONIM TABIIAT»

INSHOLAR VA RASMLAR TANLOVIGA

22-APREL – XALQARO YER KUNI

– Kechirasiz, bu «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatimi? – deya qo'lda bir dasta rasmlar ko'tarib xonamizga kirib kelgan ustoz o'zini Marg'ilon shahridagi I-«Mehribonlik uyi» ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Sobirjon Usmonov deya tanishtirdi.

Salom-alikdan so'ng suhbatimiz qizib ketdi. Ustoz o'quvchilari orasida tasviriy san'atga ixlosmandlar ko'pligi, ularning Farg'ona viloyati «Barkamol avlod» markazi tomonidan «Mehribonlik uyi» qoshida tashkil etilgan «Yosh musavvir» to'garagida uning rahbari Muhabbatxon Abdullayevadan rassomlikning nozik sir-asrorlarini o'rganishayotgani haqida to'lqinlab gapirdi.


Suhbatimiz yakunida shogirdlarining «Onajonim tabiiat» insholar va rasmlar tanloviga tayyorlagan ijodiy ishlarini bizga taqdim etdi. Quyida farg'onalik tengdoshlarimiz, shuningdek, mazkur tanlovga kelgan ijodiy ishlardan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilamiz.

Ona tabiiatni asrang



Shernafhammed DIBIQONOV

Bahorda



Gulnara HAKIMOVA

Qishlog'im



Muhabbatxon ABDULLAYEV

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Gulchiroy TOLIBOYEVA o'zi istiqomat qilayotgan Sarayon qishlog'idagi ekologik muammolar xususida quyidagicha hikoya qiladi:

HISSAMIZNI QO'SHYAPMIZ

Rivoyat qilishlaricha, Alloh avval olamni, to'rt faslni mukammal qilib, turli mavjudotlarni, jonivorlarni, jamiki hayvonot va nabotot olamini asrash, avaylash uchun insonni yaratibdi. Inson esa oradan yillar o'tib, o'z hoyu havasi yo'lida uyidagi devor-u tokchalarini yasatish, po'stinlarining yoqasini bezash maqsadida hayvonlarni ayovsiz qira boshlabdi. Ammo tabiat barchasini kechirib boraveribdi. Nazarimda, bugun tabiat insonning xudbinlaricha qilgan qilmishlariga jazo hozirlayotgandek.

Biz Buxoro viloyatining chekka hududlaridan biri Sarayon qishlog'ida yashaymiz. Qishloqdoshlarimiz, asosan, dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Ammo keyingi paytlarda yerimizda sho'rlanish kuchayib ketyapti. Shu sababli, dehqonlar kutilgan hosilni yetishtira olishmayapti. Urug'ni qayta-qayta ekish tufayli hosildorlik kechikyapti, bu ham yetmagandek, turli kasalliklar sabab yetishtirilgan hosilning teng yarmi nest-



qilyapmiz. Tabiat onadek kechirimli, saxiy va otadek sabr-bardoshli. Eng muhimi, biz uning bu fazilatlarini suiste' mol qilmasak, bas.

Bugungi kunda ona tabiiatni asrash mavzusi barchamizni birdek o'yantirayotgani rost. Tanlovimizga kollej va litsey o'quvchilari ham befarq bo'lmay, unda ishtirok etish istagini bildirishayotgani bizni quvontiradi.

Toshkent iqtisodiyot va biznes kollejining 2-bosqich o'quvchisi Visola HAKIMBOYEVA o'z inshosida asosli fikrlarni keltirib, tengdoshlarini tabiat himoyasiga chortlabdi.

MAS'ULIYATNI HIS QILAYLIK

Tabiat deganda, keng ma'noda butun borliq tushuniladi. Biz uyimizni kunda tozalaymiz, xonalarni shamollatamiz, changlarni artamiz. Xuddi shuningdek, ona tabiiatimizni ham saqlashimiz, uning boyliklarini kelgusi avlodlarga ham qoldirishni o'yashimiz kerak. Buning uchun tabiatni muhofaza qilish bugungi kunda juda dolzarb, deb o'ylayman.

Ekologiya fani aynan shu masala bilan shug'ullanadi. Ekologiya so'zi yunoncha oikis – joy, makon va logiya – fan degan ma'noni bildiradi. Bu atamani fan olamiga 1866-yilda nemis zoologi E.Gekkel kiritgan. Bunga qadar qadim Gretsiya va Rim tabiatshunoslari o'z asarlarida ekologiya, iqlim o'zgarishlariga oid fikrlar bildirganlar. Dunyo tan olgan tabiiatshunos olimi Abu Ali ibn Sino bobomiz shogirdlariga

turli giyohlardan dori tayyorlashni o'rgatib, notanish giyohlarni uzmaslik, bilib-bilmay insonlarga ozor yetkazmaslikni tayinlagan ekanlar.

Yozma manbalarga ko'ra, AQSH, Angliya singari davlatlarda avtomobil ishlab chiqarila boshlaganda, avvaliga u spirt yonilg'isi bilan harakatlangan. Keyin benzin ishlab chiqarila boshlangan. O'sha paytda spirtning bahosi 6 sent, benzin esa 5 sent bo'lgan. Aholi, albatta, arzonroq yonilg'iga o'tgan. Hozirgi kunga kelib, atmosferaga har bir mashinada 1 litr benzin yonganda

340 gramm, 1 m³ tabiiy gaz yonganda 100 gramm atrofida, 1 m³ dizel yonilg'isi yonganda 98 gramm qora qurum va oltin gugurt oksidi chiqarkan. Bu chiqindilar yerdan bug'lanib, bizni va atrof-muhitni zaharlaydi. Kislotla yomg'irlari paydo bo'lib, o'simliklar va ekin maydonlariga zarar yetkazadi.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish kerak, deymiz-ku, ayrimlar hatto kundalik turmushda ishlatiladigan suv va gazni ham iqtisod qilmaydilar, kuzda xazon yoqadilar.

Tabiat va inson o'zaro chambarchas bog'liq. Shunday ekan, ona tabiiatni asrashni har birimiz kundalik vazifamiz, deb bilishimiz kerak.



Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 3-«D» sinf o'quvchisi Gulchiroy JABBOROVA tabiatga oid fikrlarini bayon qilishning g'aroyib yo'lini topibdi. O'quvchilarni zeriktirib qo'ymaslik uchun inshosini ertaknamo tarzda yozibdi va unga mos rasm ham chizibdi.

G'AROYIB TUSH

Odatdagidek, erta tongda maktabim sari oshiqdim. Dalalarni tomosha qilib borarkanman, borliqning yashil rangga burkanganini ko'rib, zavqim oshdi. Bir payt «Qizaloq, hoy qizaloq», degan ovoz eshitildi. Ortimga qarasam, tutundek qorayib ketgan bir momo menga qarab turibdi. Men unga yaqinroq bordim. Opoq ro'moli kirlangan, yuzlariga ajin tushgan momo «Mendan qo'rqma», deya tilga kirdi. «Men Ona tabiatman... Yuzlarimning rangi seni qo'rqitayotgan bo'lsa kerak, odamlar turli chiqindi va xazonlarni yoqavergach, yuzko'zlarim shunday rangga kirib qoldi. Opoq libosim chang-g'uborlar ta'sirida ohorini yo'qotdi. Odamlar mening qadrimga yetishmayapti. Buning oqibati yomon bo'lishi mumkin...», dedi kuyinib.

«Aytng, momo, men nima qilay?» so'radim undan. «Sen odamlarga, teng-qurlaringga tushuntir, oqar



Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Rustam MALIKOV esa tanlovga yo'llagan inshosini «Tabiatni nega sevamiz?» deya nomlab, javobini ham o'zi bayon qilibdi:



Nega inson tabiatni sevadi, uni ardoqlaydi? Nega, tabiat uning hayoti, yuragining bir bo'laki. Borliqning turfa ranglari dillarni quvnatyaptimi, biz unga oshno bo'lib yashayveramiz. Yo'llarimizda mayсалar shiviri, qushlarning chug'ur-chug'uri eshitilyaptimi, demak, tabiat yashayapti! Afsuski, iqlimimizning tobora ifloslanishi, ozon qatlaminin yemirilishi natijasida tabiatning go'zal chehrasida dog'lar paydo bo'layapti. Ko'chalarimizda harakat qilayotgan ko'plab mashinalarning zaharli islari, chiqindilarni, xazonlarni yoqish natijasida tabiatga chiqayotgan zararli gazlar buning asosiy sabablaridir.

Shahrimizni yanada obod qilish, ko'kalamzorlashtirish maqsadida hududimiz bo'ylab turli tadbirlar amalga oshirilmogda. Ayniqsa, Respublika tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Ichki ishlar va Sog'liqni saqlash vazirliklari tomonidan tasdiqlangan «Toza havo» tadbiri ekologik muammolar yechimiga salmoqli hissa qo'shyapti. Tumanimiz obod bo'lib, mevali va manzarali daraxtlarga burkandi. Maktabimiz qoshidagi «Ta'lim-tarbiya va tabiat muhofazasi» to'garagi mashg'ulotlari tufayli qalbimizdagi tabiatga bo'lgan mehr yana oshyapti.

Keling, azizlar, tabiatimizni asrab-avaylab, ko'ngillarimizni, zaminimizni obod etaylik.

Poytaxtimizning «Bekobod» mahallasida joylashgan 109-maktab o'quvchilari chin ma'noda tabiat himoyachilari, desak arziydi. Bilim maskanining hovlisida rango-rang gullar chamandek ochilgan, bog'idagi mevali va manzarali daraxtlar barq urib o'smogda. Bu mo'jaz bog', ajib chamanzor o'quvchilar qo'li bilan barpo bo'lgan. Bu ishlarda ularga «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi rahbari Pokiza opa YUSUPOVA bosh-qosh. Haftada bir bor o'tkaziladigan to'garak mashg'ulotlarida yosh tabiat shaydolari «Tabiatning o'zi tabii», «Dorivor o'simliklar», «Ekologik muammolar» kabi mavzular doirasida fikrlashishadi, bahs va munozaraga kirishishadi.

To'garakning eng faol a'zolaridan Fotima JO'RABOYEVA va Z.YUSUPOVA «Tabiat va biz: kecha, bugun, ertaga» mavzusida rasm chizib yuborishibdi. Ularning g'oyasi tengdoshlarini befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.



Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi Shohismoil MAMATQULOVning tanlovga yo'llagan rasmlarini tomosha qilib, jonsiz tabiatning jonli manzaralarini ko'rgandek bo'lasan, kishi. Ulardan xulosa chiqarishni esa Sizning hukmingizga havola qilamiz.



Shu maktabning 1-«B» sinf o'quvchisi Asadbek AHMEDOV tanlovimizning eng yosh ishtirokchisi bo'ldi. Uning tanlovga yo'llagan rasmiga o'zingiz baho bering.



Qo'shsahifa materiallarini LAYLO va MARJONA nashrga tayyorlashdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qonliko'l tumanidan maktab yo'llagan Sultonbek ZIYAYEV tabiatning noyob, beozor jonzorlariga qiron keltirayotgan kimsalarga nisbatan o'z munosabatini bildirib, shunday yozibdi:

BO'RSIQ OVCHILARI

Qishlog'imizning yarmi kichik o'rmonzorga tutashib ketgan. U yerda turli jonivorlar yashaydi. O'rmonzorning qoq o'rtasidan kattakon daryo oqib o'tadi. Shu bois, o'rmonzor yo'zning jazirama kunlarida ham salqin bo'lib turadi. Hamqishloqlarimiz u yerda dam olishni xush ko'rishadi. Ammo dam oluvchilar ketishgandan so'ng u yerda qolgan chiqindilar ta'bizni xira qiladi.

Bir kuni dadam bilan katta yo'l yoqasidan ketayotib, o'rmonzor ichkarisiga nazar tashladim va daraxtlarning tagida katta-kichik chuqurchalar paydo bo'lganini ko'rib qoldim. Yaqinroq borib qarasam, chuqurchalarning og'zi sim to'rlar bilan berkitilgan ekan. Dadamdan buning sababini so'rasam, ular:

– Bu bo'rsiq ovchilarining ishi. Chuqurchalar bo'rsiqlarning uyasi. Ovchilar ularni tutish maqsadida uya og'zini sim to'r bilan berkitib qo'yishgan, – dedilar.

– Bo'rsiqlarni nimaga ovlashadi? – so'radim yana qiziqib.

– Bo'rsiqlarning go'shti va yog'i shifobaxsh hisoblanadi va qimmat turadi, – dedilar dadam. Men pul uchun odamlar hatto kamyob jonzorlarni ham ayamasliklariga achinib ketdim va ko'zimga ko'ringan barcha sim to'rlarni uya og'zidan olib tashlay boshladim. Bu bilan jonivorlarning qanchasini jonini saqlab qoldim, bilmayman, ammo qilgan ishimdan ko'nglim to'lib, yo'lmda davom etdim.



Turob NIYOZ

VATAN



*Osmondek bepoyon, tog'lardek ko'hna,
Mehrobdoy muqaddas qo'rg'onim Vatan.
Elga Alpomishni qaytargan zamin,
Dashtlarda qaynagan qumg'onim Vatan.*

*Bobomning yelkasin g'amlardan asrab,
Oftobda sarg'aygan chaknonim o'zing.
Onam alla aytib tebratgan beshik,
Momom ekib qo'ygan rayhonim o'zing.*

*Ko'nglimning ziyosi, ko'zimning nuri,
Sarkash yuragimning sadosi Vatan.
Buyuk safar oldi, katta yo'l oldi,
Otam qo'lin ochgan duosi Vatan.*

*Tashbehlar ojizdir mengzayin desam,
Aslida o'zingga o'xshaysan, Vatan.
Qiyosing topmadim butun dunyodan,
Eng aziz so'zimga o'xshaysan, Vatan!*

**Xosiyat YO'LDOSHEVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
2-akademik litsey o'quvchisi**



**UCH
OG'AYNI
CHIROQMIZ**

*Biz ko'chaning hoziri,
Chorrahaning noziri.
Shaymiz tartibga a'lo,
Noxushliklar yo'q aslo.*

*Uch og'aynimiz bizlar,
Chorrahada yulduzlar.
Uch xil rangda porlaymiz,
Hushyorlikka chorlaymiz.*

*Bizlar shunday chiroqmiz,
Xavf-xatardan yiroqmiz.
Doim yo'lda ko'zimiz,
Juda qat'iy so'zimiz.*

**Madina NE'MATOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani**



ANTIQA MONOLOGLAR

Oy:

*Bir parcha patir derlar,
Olamga tatir derlar.
Tundan qo'rqmay yurganimga,
Chinakam botir derlar.*



Shaftoli:

*Meni derlar nozik shaftoli,
Yerga tushsam, abgor ahvolim.
Dog' tushadi darrov tanamga,
Nima deyman ko'rgan odamga?!*




Chinor:

*Ko'rganlarim ko'plar ko'rman,
Chunki hech kim mingga kirmagan.*

Archa:

*Qishmi, yozmi, farqi yo'q,
Doim bir xil – yashilman.
Chunki katta shaharning
Chiroyiga mas'ulman.*



Doira:

*Bordir, «Mohir doirachining
shapalog'i shirin», deganlar.
Ammo bunday deyishmas zinhor,
Shapalog'in tatib ko'rganlar.*

Yong'ir:

*Kutilmagan mehmon demang,
Xabar berib bo'lganmiz.
Eshitib ko'rgandirsiz,
Chaqmoq chaqib qo'yganmiz.*



Kitob:

*Meni sevganlarga ko'rsataman yo'l,
Ular adashmasdan manzilni topar.
Adashib qolishsa, uzataman qo'l,
Albatta ularning omadi chopar.*

**TUPROG'INGNI BIR
O'PGIM BOR**

*Soylaringda shovullaydi shalolalar,
Suyunmoqda bahoringda gul-lolalar,
Bag'ring to'lib yashayversin sho'x bolalar,
Ona yurtim, tuprog'ingni bir o'pgim bor.*

*Toshaverar daryo-daryo mehrlaring,
Bag'rimizni rom aylagan sehrlaring,
Qalbga ulash dilingdagi she'rlaring,
Ona yurtim, tuprog'ingni bir o'pgim bor.*

*Xo'ja Ahmad Yassaviyning hikmati bor,
Qadamjoda buyuklarning izzati bor,
Sal ko'rmasam, dalalaring etgay xumor,
Ona yurtim, tuprog'ingni bir o'pgim bor.*

**Shahnoza QORAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani**

ONAJONIM

*Qoshlarimda parvona
Dardkashimdir yagona.
U mening jon-jahonim –
Mehribon onajonim.*

*So'zlari ma'noga kon,
Qalbi misoli ummon.
Mehr ulashar har on,
Mehribon onajonim.*



**Husanboy TOHIRBEKOV,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi
14-Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-
internatining 7-sinf o'quvchisi**

Nevaram Istoraxon endigina uch yoshga qadam qo'ydi. Ammo juda ziyarak qiz, hamma narsaga aql-u farosati yetadi. Gapirganda, biyron-biyron so'zlaydi.

Dam olish kuni onasi uni biznikiga tashlab ketdi. Istoraxon kechgacha opasi Irodaxon va akasi Dostonjon bilan o'ynab charchadi shekilli, uxlab qoldi. Lekin ko'p o'tmay, bolalarning shovqin-suronidan uyg'onib ketdi. Chaqirsam, quchog'ini ochib yugurib keldi-da, «Dodajon» deya quchoqlab oldi. Shu damda butun charchoqlarim chiqib ketgandek bo'ldi. Bolalik uy bozor, bolasiz uy mozor, deb shuni aytsalar kerak-da!

– Istora, kimni yaxshi ko'rasan, adangnimi yoki opangni? – so'radim qiziqib. U o'z tuqqan onasini «opa» deyishga odatlangan.

– Adamni, opamni yaxshi ko'raman, – dedi u erkalanib.

– Yo'q, ona qizim, bittasini aytgin, – dedim ataylab. U biroz o'ylanib turdi-da:

– Ikkalasin, – deya ta'kidladi qat'iy ohangda. «Ha, baxtingga ikkalovi ham omon bo'lishsin», dedim ichimda xursand bo'lib...

Shu payt ko'cha eshigi ochilib, uning dadasi Rustamjon kirib keldi. Qizaloq dadasiga quchoq ochib, yugurib ketdi.

Men Rustamjon bilan ko'risha turib:

**UYIMIZGA
KETAYLIK, OYI!**



Gulira'no ZOKIROVA chizgan rasm

– Bugun Istoraxon shu yerda qolarmish, – deyishim bilan oq u menga qarab:

– Yo'q, adam bilan ketaman, – desa bo'ladimi?! Shunda o'z bolaligim yodimga tushib ketdi...

Bolaligimda onam bilan qarindoshimiz Husniddin amakinikiga mehmonga borgandik. Ularning uylari oppoq, chiroyli, hovlilari saranjom-sarishta edi. Hovli o'rtaida rang-barang anvoyi gullar chamandek ochilib yotardi. Mehmonlar ko'p kelardi. Rahmatlik Lutfiya aya shirinso'z, mehmonnavoz ayol edilar. Doim bizga yaxshi o'qinglar, olim bo'linglar, deya nasihat qilardilar. O'zlari ham barcha farzandlarini o'qimishli qildilar.

Mehmonlar chaqqaqlashib o'tirishardi. Men sekingina onamning yonlariga borib, quloqlariga asta shivirladim:

– Oyi, qachon uyimizga ketamiz?

Oyim menga bir qarab qo'yib, go'yo hech narsa bo'lmaganday o'tiravardilar. Men yana takror so'radim. Shunda Lutfiya aya:

– Voy, bolajonim, shu mahalda qayoqqa borasizlar, qara, qorong'i tushib qoldi-ku. Bugun shu yerda yotib qolasizlar, ertaga uyingga borasan, xo'pmi, – dedilar.

Bu gapni eshitgach, ho'ngrab yig'lab yubordim-da:

– Oyi, oyijon, o'zimizning qora uyimizga ketaylik, – deya baland ovozda xarxashamni boshladim. «Qora uyimiz» deyishimga sabab, uylarimiz oqlanmagan, qora suvoqda edi-da...

Ha, bolajonlarim, «O'z uying – o'lan to'shaging», deb shuni aytsalar kerak-da!..

Abdusattor BAHODIROV

Ayni kunlarda sinfdoshlar Iroda va Madinaning bo'sh vaqti deyarli bo'lmayapti. Darslar tugashi bilan sport mashg'ulotlariga oshiqishadi, bu ahil dugonalar sportning badiiy gimnastika yo'nalishida tumanda g'olib bo'ldilar-da, endi navbat viloyat bosqichiga! Maqsadlari esa aniq: bu bosqichda ham g'olib bo'lib, ota-onalari, ayniqsa, ustozlari – badiiy gimnastika to'garagi rahbari Shahnoza Beknazarovaning ishonchini oqlash.

Samarqand viloyati, Toyloq tumanidagi 5-maktabning 6-«B» sinf o'quvchilari Iroda Qayumova va Madina Hotamova o'qishda, har ishda tengdoshlariga o'rnak, ibratli ishlarga bosh-qosh.

Iroda sinf sardori. Yaqinda maktabda «Eng yaxshi sinf sardori» tadbiri o'tkazildi. Unda Irodaning ishlari yuqori baholandi va eng yaxshi sinf sardori deb topildi.

Harakatchan, tinib-tinchimas sportsevar qizlarimiz bilan suhbatlashganimizda, ular «Bekorchilik salomatlikni susaytiradi, biz esa bunga aslo yo'l qo'ymaymiz», deya ta'kidlashdi. Sog'-salomat va go'zal bo'lish uchun esa sport bilan do'stlashish zarurligini qizlar juda yaxshi bilishadi.

OLMOS.
Surat muallifniki



SINFDOSHLAR

Bolalar sporti

TAHRIRIYATDAN:

Gazetamizning ushbu soni nashrga tayyorlanayotganda tahririyatimiz telefoni jiringladi.

Gimnastikachi qizlar tahsil olayotgan 5-maktab rahbari Abdurauf HAMIDOV bizga quyidagi xushxabarni yetkazdi:
– Hozirgina Iroda va Madina viloyat bosqichida ham g'oliblikni qo'lga kiritishdi!

E'tiborli maktab rahbarining quvonchiga biz ham sherikmiz.

Sport insonning ham jismonan, ham ma'nan barkamol bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyatga ega. Buni yaxshi anglab yetgan ko'plab tengdoshlaringiz yoshligidanoq sportning biror turi bilan muntazam shug'ullanib, salomatliklarini tiklabgina qolmay, ko'plab respublika va xalqaro musobaqalarda yurtimiz sharafini munosib himoya qilib kelmoqda. Suzish bo'yicha ko'p karra O'zbekiston chempioni, xalqaro turnirlar g'olibi Amirbek Usmonov ana shunday iqtidorli yoshlarimizdan.

AMIRBEKNING ORZUSI

Qaysiki oilada sog'lom turmush tarzi qaror topsa, ana shu oila farzandlari sog'lom bo'lib kamolga yetadi. Bu borada tengdoshingiz Amirbekka omad kulib boqdi. Otasining suv sportiga mehri bo'lakcha bo'lgani uchun yosh qahramonimiz olti yoshidayoq suzish havzasiga olib bordi.

Amirbek tez orada o'zining qat'iyati, tirishqoqligi bilan murabbiylar nazariga tushdi. Tinimsiz izlandi, ustozlari o'rgatgan mashqlarni qunt bilan o'zlashtirdi. Natija esa chakki emas:

yosh iqtidor egasi to'qqiz yoshida mamlakat chempionati sovrindoriga aylandi.

Aytish mumkinki, keyingi yillarda yurtimizda suv sport turlari jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarimizning suzishga qiziqishi tobora ortib borayotir. Bu mamlakatimizda suv sport turlarini rivojlantirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar natijasidir.

Amirbek Usmonov poytaxtimizdagi suzish bo'yicha 23-ixtisoslashgan bolalar o'smirlar olimpiya xiralari sport maktabi-

da o'qish jarayonida tajribali murabbiylar qo'l ostida o'z mahoratini oshirib, orzulari sari dadil qadam tashladi. U 2010-yilda suzish bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi safiga qabul qilingach, ko'plab nufuzli xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat qozondi.

Yosh sportchimiz 2011-yili Germaniyada o'tkazilgan xalqaro musobaqada bor mahoratini namoyish etib, bittadan oltin va bronza medalni qo'lga kiritdi. Uning mazkur musobaqadagi ishtiroki muxlis-u mutaxassis-

larda katta taassurot qoldirdi. O'sha yili Iсроlda bo'lib o'tgan turnirda Amirbek yanada muvaffaqiyatli ishtirok etib, uchta oltin, bittadan kumush va bronza medal-larga sazovor bo'ldi. Shuningdek, 2012-yili yurtdoshimiz Germaniyadagi turnirda beshta oltin va bitta kumush, Avstriyadagi musobaqada beshta oltin medal bilan taqdirlandi.

– Bugun yurtimizda biz yoshlarning ta'lim olishimiz, sport bilan shug'ullanishimiz uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Biz esa bu

imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz, o'z ustimizda tinimsiz mehnat qilib, yurtimiz dovru'g'ini dunyoga yoyishga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim, – deydi Amirbek Usmonov.

Sportchimizning kelajakdagi asosiy maqsadi sport olamidagi eng nufuzli musobaqa – Olimpiya o'yinlarida yurtimiz sharafini munosib himoya qilib, oltin medalni qo'lga kiritishdir. Biz esa tengdoshingizning ulkan orzulari ushali shiga tilak bildiramiz.

Sa'dullo TURSINOV



«Yurt ozod, turmush obod» insholar va rasmlar tanloviga



Buvim, dadam va oyim,
To'rla o'tirar buvam.
Dasturxon atrofida,
O'ilmiz jamuljam.
Akam, men, jajji ukam,
Baxtiyordir oilam.

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 109-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Fotima JO'RABOYEVA tanlovga yo'llagan rasmini «Baxtiyor oilam» deb nomlabdi.

Bizning tarjima

Qadri o'quvchilar, yil boshida ezu niyatlar bilan ochilgan ushbu sahifamizga ham sizlardan ko'plab maktublar o'qiydiz. O'quvchilarimiz, adiblarimiz, ipokor ustozlarimiz nafaqat rus tilidan, balki to'g'ridan to'g'ri ingliz, koreys, turk, arab tillaridan qilingan tarjimalar yo'llashayotgani bizni behad quvontiradi.

Quyida rus tilidan qilingan she'riy tarjimani o'tiboringizga havola qilyapmiz. Siz ham o'zingiz yoqtirgan chet tilidagi biror she'rni o'zbek tiliga o'g'irishga urinib ko'ring va ustozingizga o'qib bering. Tarjimangizdan ko'nglingiz to'lsa, tahririyatimizga yuboring.

S. ALEKSANDROVA

ОДУВАНЧИК

Одуванчик золотой,
Был красивый, молодой.
Не боялся никого,
Даже ветра самого!

Одуванчик золотой,
Постарел и стал седой.
И как только посидел,
Вместе с ветром улетел.

МОМАҚАҲМОҚ

Oltin rang momaqaymoq,
Chiroyli edi, ko'rkam.
Pisand qilmasdi hatto,
Kuchli shamollarni ham.

Oltin rang momaqaymoq,
Qarib qoldi u behol.
O'tirardi munkillab,
Uchirib ketdi shamol.

FERUZA

Gazetaning o'tgan sonida berilgan «Kimga nima kerak?» boshqotirmasining javobi:

Mehnat qilib topganing – qand-u asal totganing.

ТОПИШМОҚЛАР



Sizga aytay bir jumboq,
Bordir sehrli tayoq.
Tayoqning ichi bo'yoq,
Rasm chizar Shohsanam,
Topdim, bu – rangli ...

Go'yo men-la bahs boylab,
Izimdand yurar poylab.
Ta'qib etgich bu qoya,
Bilsang, atalar ...



Dildora BAKIROVA,
O'zDSMI Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

MEVALI PISHIRIQ


pezanda qilsa!

Aziz va lohar, qo'llari ham, tillari ham shirin qizlarjon! Sizing totli, mazali taomlar, pishiriqlar tayyorlab, uydagilarni mamnun qilishingizga shubhamiz yo'q. Bugun sizga tavsiya qilmoqchi bo'layotgan shirinligimiz ham to'kin dasturxon-ingizga ko'rk bo'ladi, degan umiddamiz.

Kerakli masalliqlar: 4 osh qoshiq un, 6 osh qoshiq shakar, 5 ta tuxum, 1,5 tashkan danagidan tozalangan o'rik, ozgina non tolqoni, yog'.

Tayyorlanishi: tuxumlarning oqi sarig'idan ajratiladi. Alohida idishlarda shakar qo'shib ko'pirtiriladi. So'ngra, bir idishda aralastirilib, un qo'shiladi. Qolip yoki gaz patnisiga yog' surtilib, suyuq xamirning yarmi quyiladi va ustiga yuvib tozalangan meva joylanadi. Qolgan xamir uning ustidan quyiladi. 180-200 darajada qizdirilgan gaz pechida 30 daqiqa davomida pishiriladi.

NARGIZA tayyorladi



DUNYODAGI TENGDOSHIM



Ziyrak, har narsaga qiziquvchan bolajonlar! Bugun sizlarga germaniyalik tengdoshlaringiz hayoti haqida ma'lumot bermoqchimiz.

«1» A'LO BAHO EKAN

Germaniyada bolalar olti yoshdan boshlang'ich maktab (Grundschule)ga qabul qilinadilar. Sarlavhada o'qiganingizday, baholash tizimi 6 ballik sistemada bo'lib, biznikidan farqli o'laroq, «1» eng a'lo baho hisoblanar ekan. Bu bahoga erishish uchun o'quvchidan vazifani to'g'ri, to'liq, qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda va hayotiy misollar yordamida bajarish talab etiladi.

2-sinf gacha o'quvchilarning bilimi umuman baholanmaydi, balki ular faqat o'qib-o'rganish bilan band bo'ladilar. 4-sinf dan asosiy maktab deya atalgan (Hauptschule) bosqich boshlanib, u 9-sinf gacha davom etadi. Ammo Germaniyada turli darajadagi maktablar mavjud bo'lib, iqtidorli o'quvchilar 6-sinf dan qabul qilinadigan haqiqiy maktab (Realschule) ham bor. Realschule da o'qiganlar o'rta ma'lumotga ega bo'ladilar. Gimnaziyalarda 12-13-sinf gacha tahsil olinadi.

Ta'tillar-chi, deysizmi? Germaniyaliklar «Qisqa vaqt bo'lsa-da, tez-tez dam olgan afzal» qoidasiga rioya qilishgani sabab, maktablarda bir haftalik, yozda esa eng uzun ikki oylik ta'tillar beriladi. Ta'lim tizimida o'quvchilar va ota-onalar uchun ba'zi qat'iy qoidalar joriy qilingan bo'lib, unga ko'ra to'qqiz yosh gacha bo'lgan bolalarning uyda yolg'iz qolishi taqiqlanadi. Shu sabab, har bir maktabda kuni uzaytirilgan sinflar mavjud. Bolalarning jiddiy sabablarsiz dars qoldirishlari ham qat'iy taqiqlangan bo'lib, bu ishga hatto politsiya ham jalb qilinadi. Bolaning betobligi haqida maktab rahbariyatiga birinchi kundayoq xabar berilmagan va tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilmagan hollarda ota-onaga jarima solinadi.

Har bir davlatning o'z ta'lim tizimi, tartib-qoidalari mavjud bo'lsa-da, maqsad va muddao yagona – jahonda barcha bolalar odob-axloqli, bilimli, komil insonlar bo'lib voyaga yetishsin!

QIZLARXON

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqbov ERGASHEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruza MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV
Musahhah
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel.: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 86260
Buyurtma N: J 6941

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.